

AHOLINI KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK BO'YICHA
DAROMADLARINING TURLARI VA SHAKLLARINI BOSHQARISH

B.N. Muydinov, i.f.n., dots.,

University of economics and pedagogy NOTM

O'quv ishlari bo'yicha prorektori

N.I.Sayidxodjaeva

University of economics and pedagogy NOTM

"Iqtisodiyot va ijtimoiy fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqola kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati bo'yicha aholi daromadlarining turlari, ularning manbalari, manbalarning o'zgarishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar, daromadlarning yangi ko'rsatkichlari tizimini keng yoritib berish va uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada ohirgi iste'mol va jamlash normasi o'zining bir qator belgilari bilan ajralib turishi va ularning aholi daromadlariga ta'siri ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, bozor iqtisodiyoti, 'ul daromadlari, natura daromadlari, natura-xizmat daromadlari, real daromadlar, foyda, narx-navo indeksi,renta, mehnat unumdorligi, dividend, foiz, birlamchi daromad, milliy daromad, taqsimlash, qayta taqsimlash, ohirgi iste'mol, jamlash normasi.

Аннотация. Статья посвящена изучению видов доходов населения, их источников, основных факторов, влияющих на изменение источников, системы новых показателей доходов и ее особенностей для малого бизнеса и частного предпринимательства. В статье выявлено, что норма конечного потребления и накопления отличается рядом своих характеристик и их влиянием на доходы населения.

Ключевые слова: Малый бизнес и частное предпринимательство, рыночная экономика, денежный доход, натуральный доход, натуральный доход от услуг, реальный доход, прибыль, индекс цен, рента, производительность труда, дивиденды, проценты, первичный доход, национальный доход, распределение, перераспределение, конечное потребление, норма накопления.

Abstract. The article is devoted to the study of the types of income of the population, their sources, the main factors influencing changes in sources, the system of new income indicators and its features for small businesses and private entrepreneurship. The article reveals that the rate of final consumption and accumulation differs in a number of its characteristics and their impact on the income of the population.

Keywords: Small business and private entrepreneurship, market economy, cash income, income in kind, income in kind from services, real income, profit, price index, rent, labor productivity, dividends, interest, primary income, national income,

distribution, redistribution, final consumption, accumulation rate.

Aholini kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning turli shakllari bo'yicha daromad olishlari mumkin. Masalan, tadbirkorlik mulk shakllariga ko'ra davlat, nodavlat, shu jumladan, xususiy, aralash shakllarda namoyon bo'ladi. Nodavlat shakllariga xususiy - yakka va xususiy - jamoa tadbirkorligi kiradi. O'z navbatida xususiy - yakka tadbirkorlik subyektining o'z mexnatiga va yollanma mehnatga asoslangan bo'ladi. Xususiy - jamoa tadbirkorlikka sheriklik, paychilik jamoalari, aksiyadorlik jamiyatlari kiradi. Aralash tadbirkorlik qo'shma, aralash va ijara korxonalari shaklida namoyon bo'ladi.

Uyushish darajasiga ko'ra, yakka tartibdagi va jamoa tadbirkorlik shakllari mavjud. Yakka tartibdagi tadbirkorlikka yakka tartibda mexnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi, o'z mexnatiga, xususiy va yollanma mexnatga asoslangan xususiy tadbirkorlik, oilaviy korxonalar kiradi. Tadbirkorlikning jamoa shakliga davlat, shirkat, sheriklik, paychilik, mexnat jamoasi korxonalari, aksiyadorlik jamiyatlari va hokazolar kiradi.

Faoliyat sohasiga ko'ra, tadbirkorlik ishlab chikarish, xizmat ko'rsatish, tijorat ishi va tijoratda vositachilik qilish shakllariga ega bo'ladi. Tadbirkorlik korxonasida ish bilan band bo'lgan xodimlar miqdoriga ko'ra kichik, yirik tadbirkorlik shakllarida o'z ifodasini topadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki kichik tadbirkorlik ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasida «Tadbirkorlik to'g'risida»gi qonuninng 5-moddasiga binoan tadbirkorlikning quyidagi shakllari mavjud:

- yakka tartibdagi tadbirkorlik;
- xususiy tadbirkorlik;
- jamoa tadbirkorligi;
- aralash tadbirkorlik.

Yuqoridagi faoliyat turlaridan biri bilan shug'ullanuvchi shaxslar tadbirkorlar deb ataladi. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan asosiy maqsad daromad (foйда) olish bo'lib hisoblanadi.

Daromadlar quyidagi turlarga bo'linadi.

1. Pul daromadlari.
2. Natura daromadlari.
3. Natura-xizmat daromadlari.

Daromadlar o'z egasi ixtiyoriga kelib tushishi shakli jihatdan ham turlicha bo'ladi. Pul daromadidan tashqari, natura daromadi va imtiyoz shaklidagi daromad mavjud. Dehqon (fermer) xo'jaligida mahsulotning bir qismi bozorga tushmagani holda, shu erning o'zida istehmol etiladi. Bu natural daromad, ayniqsa, tomorqa xo'jaligiga xos. Masalan, tomorqa xo'jaligi sohibi asosiy ish joyidan pul shaklida yiliga 320 ming so'm daromad olsa, o'z xo'jaligida ham 300 ming so'mlik pul daromad oladi.

Shuningdek, natura shaklida 1500 kg har xil mahsulotni ham istehmol etadi, uni pulga chaqsak, salkam bir mln so'm bo'ladi.

Bepul tibbiy xizmatdan bahramand bo'lish, bepul bilim olish yoki kasb o'rganish ham natura-pul shaklidagi daromad. Ma'lum toifa aholi, kvartira haqi, kommunal xizmat va transport haqi bo'yicha imtiyozga ega. Bular ham daromad. Aytilgan xizmatlarni xaqiqiy narxi bilan imtiyozli narxi o'rtasidagi farqni muayyan aholi guruhlari naqd pul shaklida olmaydi, lekin arzonlashtirilgan xizmatlaridan foydalanib, daromad ko'radi. Daromadlar tizimida ish haqi asosiy hisoblanadi, chunki aholi daromadlarining katta qismi, uning ulushiga to'g'ri keladi. Ish haqi ish kuchi egasining o'z mehnati natijasi uchun oladigan haqi bo'lib, ish kuchi sohibining tirikchilik vositalari narxini ifodalaydi. Ish kuchi sohibining o'zi va oilasining tirikchiligi uchun zarur bo'lgan iste'mol buyumlari va xizmatlarning narxi ish haqi uchun asos bo'ladi, ammo, yaxshi naf keltiruvchi ish kuchiga talab yuqori, binobarin, ish haqi ham yuqori turadi. Mehnat qanchalik yuqori unum bersa va u yaratgan tovarlar bozori chaqqon bo'lib, narxi yuqori bo'lsa, ish haqi shunchalik katta bo'ladi. Mehnat natijasi har xil bo'lganidan, ish haqi ham tabaqalashadi. Odatda, malakasi yuqori, bilimdon va tajribali kishi mehnati qadrlanadi va unga yuqori haq beriladi.

Bozor iqtisodiyotini erkinlashtirish sharoitida foyda alohida maqomga ega bo'lgan daromad hisoblanadi, chunki u tadbirkorlik natijasi foyda olish orqali tadbirkorlik qobiliyati iqtisodiy jihatdan yuzaga chiqadi. Ko'rib chiqilgan daromad turlari shartli ravishda chegaralanadi, chunki, ularni aniq ajratish mushkul ish. Real hayotda ish haqi bilan foyda chatishib ketadi yoki renta bilan foyda va hatto ish haqi birikkan bo'ladi. Dehqonchilikni olsak, bu erda fermer o'z erida o'z vositalari bilan o'zi ishlaydi. U olgan daromadni renta, foyda va ish haqiga ajratish qiyin albatta. Agar fermer birovning erini ijaraga olib, unga o'z kapitalini solsa, o'zi mutlaqo ishlamay, o'zgalarni yollab ishlasa, ish haqi, foyda va rentani tabaqalashtirish mumkin. Shunda ham noaniqlik bo'ladi, chunki ijara haqining qaysi qismi renta-yu, qaysi qismi er egasining erga solgan kapitaliga tegadigan foyda ekanini ajratib bo'lmaydi. Daromadning bir turi boshqa turi tarkibida bo'lish mumkin. Ular o'z manbai, shakllanish usullariga ega. Daromad turlarining nisbati daromadning tarkibiy tuzilishini ko'rsatadi. O'sish jarayonida daromad tarkibining o'zgarib borishi, daromad turlarining chatishib ketishi daromadlarga xos qonuniyat hisoblanadi.

Daromadlar pul daromadlari va real daromadlarga bo'linadi. Real daromadlar, bu pul daromadini xarid etish qobiliyatini bildiradi. Aholining real daromadi iste'molning hamma jihatlarini o'zida mujassam etuvchi umumlashgan, sintetik ko'rsatkichidir. Real daromad birinchidan, pul daromadining miqdoriga, ikkinchidan, daromaddan chegiriladigan har xil soliqlar va to'lovlarga, yahni pul daromadining egasi qo'lga tegadigan qismiga, uchinchidan, narx-navo darajasiga bog'liq. Narx-navo qathiy bo'lib, pul daromadi ko'paysa, real daromad ham ortadi. Pul daromadi o'zgarmagani

holda narx tushsa real daromad ortadi, agar narx oshsa, u pasayadi. Shunga ko'ra, real daromaddagi o'zgarishlar pul daromadi indeksining, narx-navo indeksiga bo'lgan nisbati bilan o'lchanadi.

Bozor iqtisodiyoti daromadlarning xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Ular uch guruxga bulinadi:

- a) mehnatdan kelgan daromad;
- b) tadbirkorlikdan kelgan daromad;
- v) mulkdan kelgan daromad.

Mehnatdan kelgan daromad - bu yollanib ishlovchi kishilarning daromadi bulib, ish haqi va turli foydadan ajratiladigan mukofotlardan iborat buladi.

Ish haqi - bu ko'pchilik aholining asosiy daromadi. Rivojlangan mamlakatda jami daromadlarning 60-70 foizini ish haqi tashkil etadi. Ish haqi - yollanib ishlovchilarning ishlab topgan daromadi, tirikchilik vositalarini (maxsulot va xizmatlarni) xarid etish va pul jamgarmasini xosil etish uchun ishlatiladi. Ish haqi uch qismdan: asosiy ish haqi, mukofot tarzidagi (bonus) ish haqi va belgilangan ish vaqtdan ortiqcha ishlaganlik uchun beriladigan pul to'lovidan tashkil topadi. Ishlovchining qo'liga tegishiga qarab umumiy ish haqi va sof ish haqi buladi. Umumiy ish haqini yalpi, ishlovchi xisobiga yozilgan ish haqi desa xam buladi. Sof ish haqi yalpi ish haqidan xar xil to'lovlar (soliqlar, badal puli va x.k.) chegirib tashlangandan so'ng qoladigan ish haqi, ya'ni ishlovchining xamyoniga kelib tushadigan ish haqidir.

Ish haqining mikdori o'zgaruvchan bulib, bu o'zgarish asosan uch omil tahsirida yuz beradi:

a) *Ish kuchiga talab va uning taklifi.* Mehnatga talab oshganda ish haqi ko'payadi, mehnat taklifi oshganda esa ish haqi kamayadi. Mehnat bozoridagi talab va taklif tenglashgan taqdirda ish haqi bir me'yorda saklanadi.

b) *Mehnat unumdorligi.* Ish bilan bandlik sharoitida ish haqi mehnat unumdorligi oshsa ko'payadi, u pasaysa, aksincha, kamayadi.

v) *Bozor uchun ishlay bilish.* Ish haqi umuman ishlaganlik uchun emas, balki bozor talabiga mos ravishda bajarilgan mehnat uchun beriladi. Tovarlar bozorbop bo'lib, yaxshi sotilsa, ish haqi ko'payadi, ular bozorda o'tmay qolsa ish haqi kamayadi yoki uni to'lash imkoni bo'lmaydi.

Tadbirkorlik daromadi foyda shakliga kiradi. Foyda tadbirkorlarning pul sarflab tavakkaliga ish kilib, xavf-xatarni zimmasiga olgani uchun ularga tegadigan pul daromadi hisoblanadi. Tabiatan foyda kafolatlanmagan daromad bulib, tez-tez o'zgarib turadi. Aholi daromadlari tarkibida foydaning hissasi katta bo'lmaydi, chunki tadbirkorlik bilan g'oyat ozchilik shug'ullanadi. Masalan, AQSHda foydaning aholi daromadlaridagi hissasi taxminan 15-18 foizni tashkil etadi.

Foydaning asosiy qismini tadbirkorlar oladi, lekin uning bir qismi foydani o'zlashtirishdagi ishchi va xizmatchilar ishtiroki sifatida ularga mukofot (bonus)

tarzida beriladi. Mukofotning miqdori foydani yaratishda xodimlarning ishtirok etishiga bog'liq buladi. Shu sababli menejerlar, ayniqsa oliy toifadagi menejerlar (to'p menejerlar) foydadan katta mukofot oladilar.

Mukofot ularning maoshiga qo'shib umumiy daromadini shakllantiradi.

Mulkdan kelgan daromad dividend, foiz va ijara haqidan iborat buladi. Dividend foydaning taqsimlanishi natijasida yuzaga keladi. Bunda aktsioner korxonadagi foydaning bir qismi aktsiya egalariiga dividend sifatida beriladi va ular daromadiga aylanadi.

Aktsiya keltiradigan dividendni uning egasi bulgan kichik aktsiyadorlar, ya'ni oddiy ishchi va xizmatchilar xam oladi. Agar aktsiyadorlar qanchalik ko'p bulsa va aktsioner korxonalar qanchalik yukori rentabelli bulsa, shunchalik dividend xam kup buladi. Masalan, 2000 yil AQSH aholisining deyarli 40 foizi aktsiyador bulib, bundan talaygina daromad topgan.

Foiz - pul egasi o'z pulini o'zgalarga qarzga bergani uchun oladigan daromadi. Foiz qarzga berilgan pul summasiga nisbatan ulush darajasida belgilanadi. Masalan, foiz qarz puliga nisbatan yuzdan o'n hissa (10%) bo'lsa, uning egasi xar bir so'm puli uchun 10 tiyin oladi, agar yuzdan o'n besh hissa (15%) bulsa, 15 tiyin oladi. Foizning yalpi miqdori, birinchidan, uning darajasiga, ikkinchidan, qarzga berilgan pul miqdoriga bog'liq. Foizning daromadlardagi hissasi ortib boradi, chunki aholi pulining bir qismi xarajatlardan ortib qolib, daromad ko'rish uchun bankka qo'yiladi. XX asr mobaynida AQSHda foizning aholi yalpi daromadidagi hissasi 2 marta oshganligi ma'lum.

Ijara haqi — ko'chmas mulk egalariining o'z mulkini muqobil ishlatishdan olgan daromadi. Yer, imorat, inshoot, kvartira, uy va boshkalar ijaraga berilib, undan daromad ko'riladi. Ular muqobil ishlatilganda ortikcha daromad topiladi. Masalan, uyni ijaraga berib, xar oyda 3 000 000 so'm daromad ko'riladi. Uyga talabgorlar ko'payganda uni yangidan 3 500 000 so'mga ijaraga beriladi. Oldingi va keyingi pul tushumi orasidagi fark 500 000 so'm ($3\,500\,000 - 3\,000\,000 = 500\,000$) bo'ladi. Ko'chmas mulk egalari ko'paygan sari ijara haqi summasi xam ortib boradi.

Ijara haqi daromad sifatida 2 qismdan iborat bo'ladi. Birinchi qismi mulk egasi uni saqlash va sifatini oshirish uchun (masalan, yerga suv chikarish, uning zaxini qochirish, uyni ta'mirlash va sug'urtalash uchun) qilingan sarfni qoplaydi. Qolgan qismi esa mulk egasiga sof daromad bo'lib tegadi.

Pensiya daromadning maxsus turi bo'lib, uni qarilik yoki nogironlik tufayli ishga yaramay qolganlarga davlat va firma yoki nodavlat tashkilot tomonidan to'lanadi. Qarilik pensiyasi ishlab topilgan, lekin berilishi kechiktirilgan daromadga kiradi. Xar bir kishi ishlagan kezlarida topgan pulining bir qismini pensiya jamg'armasiga o'tkazib boradi, bu pul xodim pensiyaga chiqqach unga ma'lum me'yorda qaytariladi.

Nogironlik pensiyasi ishlab topilgan pul bo'lmay, o'zini o'zi boqa olmaydigan kishilarni moddiy ta'minlab turish uchun ajratilgan puldir.

Pensiyaning daromadlardagi salmog'i aholi tarkibidagi qariyalarning soniga bog'liq, aholi tarkibida qariyalar soni qanchalik ko'p bo'lsa, pensiyaning daromadlardagi salmog'i shunchalik katta bo'ladi.

Nafaqa daromadning maxsus turi bo'lib, ijtimoiy yordamga muxtojlariga, odatda, kambag'allarga bir yo'la yoki muqim ravishda davlat, firmalar yoki hayriya tashkilotlari beradigan puldan iboratdir. Nafaqaning mikdori moddiy imkoniyatlarga bog'liq. Jamiyat qanchalik boy bo'lsa, shunchalik nafaqa puli ham ko'p bo'ladi.

Stipendiya daromad turi bulib, undan talabalar foydalanadi, amalda bu yordam puli bo'lib, ularning kelajakda naf keltirishi e'tiborga olib beriladi. Stipendiyani davlat yoki firmalar to'laydi. Barcha daromad turlari yalpi daromadni hosil etadi.

Dj.Xiks ta'limotiga asosan, asosiy kapital iste'molini hisoblash uchun tiklashdagi qiymatdan foydalanish lozim, buxgalteriya hisobida esa bosh birlamchi baholashdan foydalaniladi. Tan olish kerakki, MHT asosida berilgan daromadning ta'rifi va makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash, buxgalteriya hisobi materiallari asosida MHT hisoblamalarini tuzish, uni tahlil qilish va ma'lumotlarning mo'iyatini ochishda ancha qiyinchiliklar uchraydi. Shuning uchun yangi MHTda tanqid qiluvchilar tomonidan aytiladiki, bir tomondan MHTdan xo'jalik yurituvchi subg'ektlar faoliyatini o'rganish uchun foydalaniladi deyilsa, ikkinchi tomondan MHTning daromad tushinchasidan xo'jalik yurituvchi subg'ektlar foydalanila olmaydilar degan fikrni beradi. Yangi MHTda Dj.Xiks ta'limotlari asosida daromadning yangi ko'rsatkichlari tizimi qo'llaniladi va ular taqsimlash jarayonining har xil, lekin o'zaro bog'liq jarayonlarini ifodalaydi. Bu tizim quyidagi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi:

- Birlamchi daromadlar;
- Pul formadagi joriy transfertlar;
- Korxonada ixtiyoridagi daromadlar;
- Natura formadagi ijtimoiy transfertlar;
- Tuzatish kiritilgan ixtiyoridagi daromad;
- Milliy daromad;
- Davlat ixtiyoridagi milliy daromad.

Birlamchi daromadlar xo'jalik yurituvchi subg'ektlarga qo'shilgan qiymatni birlamchi taqsimlash natijasida tushadi: mehnat haqi, foyda, aralash daromad, mulkdan olingan daromad, ishlab chiqarish va importga soliqlar - bular birlamchi taqsimlash natijasida davlatni boshqarish organlariga kelib tushgan daromadlarni anglatadi.

Lekin, mulkdan olingan daromad xo'jalik yurituvchi subg'ektlar tomonidan davlatni boshqarish organlariga to'langan (masalan, foydaga soliqlar, uy xo'jaliklari to'laydigan umumiy daromad solig'i va h. k.) to'lovlar birlamchi daromadlar deb

qaralmaydi, balki joriy transfertlar yoki qayta taqsimlash xarakteridagi to'lovlar deb qaraladi.

Mamlakat xo'jalik yurituvchi subg'ektlari (rezidentlari)ga birlamchi daromadlar shu mamlakatda yaratilgan qo'shimcha qiymatdan kelib tushadi: ikkinchi tomondan shu mamlakatda yaratilgan qo'shimcha qiymatning bir qismi shu mamlakat YaIMni yaratishda qatnashgani uchun (asosan ish haqi va mulkdan olingan daromad sifatida) norezidentlarga to'lanadi.

Mamlakat xo'jalik yurituvchi subg'ektlari (rezidentlari)ga birlamchi daromadlar shu mamlakatda yaratilgan qo'shimcha qiymatdan kelib tushadi: ikkinchi tomondan shu mamlakatda yaratilgan qo'shimcha qiymatning bir qismi shu mamlakat YaIMni yaratishda qatnashgani uchun (asosan ish haqi va mulkdan olingan daromad sifatida) norezidentlarga to'lanadi.

Pul formadagi joriy transfertlar qayta taqsimlash to'lovlari joriy xarakterdagi to'lovlar bo'lib, ular joriy va mulkdan olingan daromadlar, davlat byudjetidan ijtimoiy ehtiyojlar uchun, sug'urta mukofotlari va o'rnini to'ldirish va hakozi sifatida amalga oshiriladi.

Iqtisodiyotning har bir sektori uchun daromadlar va joriy transfertlar qoldig' summasi ixtiyoridagi daromadni tashkil etadi va oxirgi istehmol va jamg'arish uchun ishlatiladi. Aytish kerakki, oxirgi istehmolni aniqlash qator omillarga bog'liq:

- Iqtisodiy ishlab chiqarish sohasini aniqlashda. Masalan, uy bekalarining ovqat tayyorlash va idishlarni ozoda saqlash, uy joyni ozoda saqlash va h.k. ishlab chiqarish sohasiga kiritilgan bo'lsa, bu xizmatlar qiymatini aholining oxirgi istemoliga qo'shib bo'lmaydi.

- Aholiga ko'rsatilgan u yoki bu xizmatlardan olgan nafini ijtimoiy baholash. Bu baholash vaqt o'tishi bilan tubdan o'zgarishi mumkin. Masalan, avvalgi asrda shaxtyorlarga ko'rsatilgan yuvinish katta bir xizmat sifatida qaralib, uni natural formadagi daromad sifatida qaralgan. Hozirgi vaqtda esa bu narsa elementar mehnat sharoiti sifatida qaraladi, uni tadbirkor ta'minlashi lozim. Shuning uchun dushlarni saqlash uy xo'jaliklarining oxirgi iste'moli sifatida emas balki korxonalarining oraliq iste'moli sifatida qaraladi.

Jamlash (ixtiyoridagi daromadning ikkinchi muhim qismi) ixtiyoridagi daromadning oxirgi iste'molidan qolgan qismini bildiradi. Shunday qilib, jamlash va pul massasining va depozitlarning ortishi, shuningdek moliyaviy aktivlar ortishini bir biridan farqlanishi lozim. Jamlash bu moliyalashtirishning va investitsiyaning muhim manbai bo'lib hisoblanadi. Jamlashning ixtiyoridagi daromadga nisbatini jamlash normasi deb ataladi. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, jamlash normasi 5% va 20% o'rtasida tebranadi. Statistikaning muhim vazifalaridan biri jamlash normasiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganishdan iborat: bank stavkasining foizi, istehmol kreditlarining berish shartlari, investitsiyalarning daromadligi darajasi, ixtiyoridagi daromad hajmi

va h.k.lar. Lekin, qayta taqsimlash jarayoni faqat pul formada emas, balki ijtimoiy madaniy xizmatlar ko'rsatish sifatida ham amalga oshiriladi (ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va h.k. bo'yicha nobozor xizmatlar ko'rsatish). Shu oqimlarni xarakterlash uchun yangi MHTda natural formadagi ijtimoiy transfertlarni ko'rsatkichi nazarda tutilgan. Ixtiyoridagi daromad va natura formada olingan ijtimoiy transfertlar summasi sektorning tuzatish kiritilgan daromadini tashkil etadi va u jamlash va amaldagi oxirgi foydalanishlarga ajratiladi. Shunday qilib, MHTda oxirgi istemol tushunchasini ikki qismga ajratiladi: oxirgi istehmol xarajatlari va amaldagi oxirgi istehmol. Bunday guruhlash oxirgi istehmolni moliyalashtiruvchi birliklar va bu xarajatlardan naf ko'ruvchi birliklar orasidagi muhim farqlardan keltirib chiqargan. Masalan, ijtimoiy madaniy xarakterdagi to'xtovsiz xizmatlar uchun xarajatlarni davlat organlari amalga oshiradilar, ulardan ko'riladigan nafni esa uy xo'jaliklari ko'radilar. Uy xo'jaliklarining amaldagi iste'moli ularning oxirgi iste'moli uchun qilgan xarajatlaridan natura formadagi ijtimoiy transfertlar, ya'ni davlat muaasassalari va notijorat tashkilotlar tomonidan a'oliga ko'rsatilgan xizmatlar hajmiga farq qiladi. Ikkinchi tomondan, davlatni boshqarish organlarining tuzatish kiritilgan ixtiyoridagi daromadlaridan natura formada to'langan ijtimoiy transfertlari hajmichalik farq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullaev Yo., Karimov F. Kichik biznes va tadbirkorlik.-T.:Mehnat, 2011.
2. G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. - T.: SHarq, 2002. 324 b.
3. Do'stjonov T.D., Salaev S.K. "Iqtisodiyot va tadbirkorlik asoslari". O'quv qo'llanma. – Toshkent.: Iqtisodiyot-moliya, 2006. - 320 b.
4. Mirziyoev SH.M. va boshq. "O'zbekistonda ishbilarmonlik va tadbirkorlikning rivojlanishi". - T: Universitet, 1994. – 74 b.
5. Salaev S.K. "Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida kichik va o'rta biznes: muammolar, tahlillar va istiqbollari". -Toshkent.: Fan, 2002. – 128 b.
6. Salaev S., Allanazarov B. "Biznes-etiket". - Urgench.:UrDU,2001 241 b.
7. "Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning amaliy asoslari". - Toshkent.: TIT', OSCE, 2004. - 12-17 betlar.
8. O'lmasov A., Vahobov A. "Iqtisodiyot nazariyasi". Darslik. -T.: SHarq, 2006. – 386 b.
9. Qosimova M.S. va boshqalar. "Kichik biznesni boshqarish". -Toshkent.: O'qituvchi, 2003. - 29-33 betlar.
10. Xoliqulov A.R., Nuriddinov S.A. "Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik asoslari va chet el tajribasi". -T.: Universitet, 1994.- 50 b.